

MINTAQAVIY GEOAXBOROT PORTALINING RAQAMLASHTIRISH MA'LUMOTLARIDAN FOYDALANISH TUZILMASI SHAKILLANTIRISH

Abduvaliyev A. A.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali dotsenti

Boltayev A. H.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali 3-bosqich talabasi

Navruzova M. A.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali 3-bosqich talabasi

Qodirov A. S.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni asosida ishlab chiqilgan "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida Qashqadaryo viloyatida yaratilgan "Raqamli Qashqadaryo" geografik axborot-tahliliy geoportali haqida so'z boradi. Ushbu portal mintaqadagi madaniy yodgorliklarni asrash va turizmni rivojlantirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqilgan bo'lib, u fazoviy ma'lumotlarni shakllantirish, tahlil qilish hamda xorijiy va mahalliy turistlarga virtual sayohat imkoniyatlarini taqdim etish vazifalarini bajaradi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy geoaxborot portalining turistik obyektlar, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ma'lumotlarni yagona platformada jamlab, turizm sohasini raqamli innovatsiyalar bilan boyitish imkoniyatlarini ochib berishini ko'rsatadi. Maqolada geoportalning struktura va funktsionalligi, uning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati, shuningdek, uning O'zbekiston bo'ylab raqamli platformalarni shakllantirishga qo'shadigan hissasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, geoaxborot portali, turizm, madaniy yodgorliklar, virtual sayohat, fazoviy ma'lumotlar, turistik infratuzilma, turistik xizmatlar, interaktiv xarita.

FORMATION OF THE STRUCTURE FOR USING DIGITALIZATION DATA OF THE REGIONAL GEOINFORMATION PORTAL

Abduvaliyev A.A.

Associate Professor, Karshi Branch of Tashkent University of Information
Technologies

Boltayev A.H.

3rd-year student, Karshi Branch of Tashkent University of Information
Technologies

Navruzova M.A.

3rd-year student, Karshi Branch of Tashkent University of Information
Technologies

Qodirov A.Sh.

2nd-year student, Karshi Branch of Tashkent University of Information
Technologies


Abstract: This article discusses the “Digital Kashkadarya” geographic information and analytical geoportal, developed as part of the “Digital Uzbekistan–2030” strategy in accordance with the Decree No. PF-6079 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 5, 2020. This portal is designed to preserve cultural heritage and promote tourism in the Kashkadarya region by applying innovative technologies. It serves to form and analyze spatial data while providing foreign and local tourists with opportunities for virtual travel. The research findings indicate that the regional geo-information portal integrates data on tourist attractions, service facilities, and other relevant information into a unified platform, enhancing tourism through digital innovations. The article analyzes the structure

and functionality of the geoportal, its role in the development of tourism, and its contribution to the formation of digital platforms across Uzbekistan.

Keywords: digital technologies, geoinformation portal, tourism, cultural heritage, virtual travel, spatial data, tourist infrastructure, tourism services, interactive map.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida 2020-2022-yillarda Mahalliy davlat hokimiyat organining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan Qashqadaryo viloyatida fazoviy ma’lumotlarni shakllantirish va tahlil qilishni ta’minlovchi “Raqamli Qashqadaryo” geografik axborot - tahliliy geoportalini yaratish tarkibida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali madaniy yodgorliklarni asrash va turizmni rivojlantirish uchun axborot tizimi ishlab chiqish belgilangan. Unga ko‘ra birinchi bosqichda viloyatdagi madaniy obyektlar haqidagi ma’lumotlar umumlashtirilishi va tasniflanishi lozim. Ikkinchi bosqichda esa xorijiy va mahalliy turistlar uchun viloyatdagi diqqatga sazovor joylar va madaniy meroslar haqida ma’lumot beruvchi, virtual sayohat qilish imkoniyatlarini o‘z ichiga oluvchi axborot tizimini ishlab chiqish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi Farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida 2020-2022-yillarda “Raqamli Qashqadaryo” geografik axborot - tahliliy geoportalini yaratish tarkibida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali madaniy yodgorliklarni asrash va turizmni rivojlantirish uchun axborot tizimi ishlab chiqish vazifasini bajarish maqsadida dissertatsiya ishida “Mintaqaviy geoaxborot portalining raqamlashtirish ma’lumotlaridan foydalanish tuzilmasi” shakllantirildi (2.9-rasm) va Qashqadaryo viloyati misolida **mintaqaviy geoaxborot portali** ishlab chiqildi (6-Ilova).



1.1-rasm. Mintaqaviy geoaxborot portalining raqamlashtirish ma'lumotlaridan foydalanish tuzilmasi

Mintaqaviy geoaxborot portal mintaqadagi turizmni rivojlantirish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar tizimida noaniqlik darajasini pasaytiradi, hududiy turistik mahsulotlarini yanada samarali rag'batlantiradi, mintaqaning ijobiy turistik imidjini shakllantiradi, mintaqada o'tkazilayotgan tadbirlar haqida foydalanuvchilarga xabar beradi.



1.2-rasm. Mintaqaviy geoaxborot portali hududni tanlash oynasi

Mintaqaviy geoaxborot portalining raqamlashtirish ma'lumotlaridan foydalanish tuzilmasidan ko'rinib to'ribdiki turistik obyektlar, xizmat ko'rsatish obyektlari va ularning topografik ma'lumotlari aks etadi. Mintaqaviy yagona geoaxborot portalining ma'lumotlarni nashr qilish uchun serverga yuklanadi.

Ushbu portal orqali turizm sohasida mintaqaviy hududida joylashgan turistik resurslar kadastiri, xizmat ko'rsatish xizmatlari, geoma'lumotlar olish, raqamli turistik mashrutlar, iqlim o'zgarishlari, ekskursiyalar, gidlardan foydanish, turistik resurslarni baholash, prognozlash, modellash, statistika qilish va bron qilish to'g'risida batafsil ma'lumotlarni olishingiz mumkin.


Geoaxborot portalida ikki xil turdagi (umumiy hamma uchun ochiq bo'lgan va ma'lum bir guruh foydalanuvchilari uchun mo'ljallangan) ma'lumotlar mavjud tizimdan to'laqonli foydalanish uchun sizni tizim administratori tizimning admin foydalanuvchilar ro'yxatiga qo'shishi talab qilinadi. Buning uchun tizim administratoriga murojaat qilishingiz kerak.

Tizimning asosiy sahifasiga o'tish

- Login va parolga ega bo'lgan foydalanuvchilar
- Registrasiya qilinmagan foydalanuvchilar


Ushbu oynada turistlar o'ziga kerakli hududni tanlash xudud haqida ma'lumotlar olish u yerda qanaqa turizm turlari va turistik resurlar xizmatla sohasi, infratuzilmasi, iqlim o'zgarishlari haqida ma'lumotlar olish.

Portalning bu oyna qismida administrator tomonidan mintaqada davlatlar tomonidan tashrif buyurgan turistlar oqimini tahlil qilish, monitoringi olib borish qaysi mavsumda qancha turist tashrif buyurgani va qaysi turizm yo'nalishi bo'yicha aniqlash imkonini beradi.




1.3-rasm Mintaqaviy geoaxborot portali hududlarda turistlar statistikasi oynasi

Turistlar mintaqaviy geoaxborot portali orqali hududlarda joylashgan mehmonxonalarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mehmonxonalar veb saytlari orqali turistlar mehmonxonalarni oldindan bron qilish hamda xizmat turlari bilan tanishlari mumkin.



1.4-rasm. Mintaqaviy geoaxborot portali hududlardagi mehmonxonalar

Mintaqaviy geoaxborot portali hududlardagi turistik obyektlari qaysi hududda joylashgani va ularning tarixi geografik tuzilishi geolokasiyalari haqida ma'lumotlarni olish hamda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Mintaqaviy yagona geoaxborot portali orqali turistlar hududlardagi ob-havo ma'lumotlarini olish bilan turistik mashrutlarini rejalashtirish imkonini beradi.



1.5-rasm. Mintaqaviy geoaxborot portali hududlardagi turistik obyektlari

Mintaqaviy geoaxborot portali orqali turistlar o'zlari uchun hududlardagi gidlarni tanlash va ular bilan muloqat o'rnatishlari mumkin.

Turistlarni mintaqadagi turizm obyektlari bilan tanishtirish mintaqaviy yagona geoaxborot portali orqali intraktiv xaritasidan obyektlar tanlash va ularga tur mashrutlarni yaratish imokinini beradi.

Mintaqaviy geoaxborot portali interaktiv xaritasida obyektlarni 3D real holatida ko'rish va ta'suratlarini boyitish turistlarni qizqishini ortishi mintaqaviy turizm faoliyatini rivojalinishiga olib keladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida turizm sohasida raqamli texnologiyalar, mobil va veb texnologiyalarini jamlanmasi mintaqaviy yagona geoaxborot portali shaklida bo'ladi. Avvalo

mintaqaviy geoaxborot portali mintaqadagi turistik portretni taqdim etishi va turizmni rivojlantirishda qo‘lay investitsiya muxitini shakllantirish hamda qo‘llab quvvatlanishi lozim. Turistik geoportal juda keng maqsadli auditoriya unda nafaqat turistlar, talabalar, ishchi xodimlar, olimlar, tatqiqotchilar uchun muhim ma’lumotlar manbai bo‘ladi.

Mintaqaviy geoaxborot portali turistik resurslar bo‘yicha ma’lumotlar bazasi va bankini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bunday portallar sohadagi ma’lumotlarning noaniqlik darajasini kamaytirishga imkon beradi. Mintaqaviy yagona geoaxborot portali turizm sohasini innovatsion boshqarishda hamda uning rivojlantirish muxim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida Qashqadaryo viloyati misolida ishlab chiqilgan mintaqaviy geoaxborot portali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi Farmonida belgilangan “Raqamli Qashqadaryo” geografik axborot-tahliliy geoportalini yaratish tarkibida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali madaniy yodgorliklarni asrash va turizmni rivojlantirish uchun axborot tizimi ishlab chiqish vazifasini bajarishda ushbu mintaqada to‘plangan ma’lumotlar bazasi va portalning raqamlashtirish ma’lumotlaridan foydalanish tuzilmasi O‘zbekistonda bo‘lajak portal va platformalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduvaliyev A.A. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini geoaxborot tizimlaridan foydalanish mehanizmini takomillashrtirishning nazariy va uslubiy asoslari” // Actual problems and prospects of the development of intelligent information and communication systems IICS-2020 Proceyedings of the Scientific Online International Conference Tashkent 2020 B. 51-53.

2. Abduvaliyev A.A. “Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy-madaniy obyektlarning ma’lumotlar bazasini va bankini shakllantirish” // Servis. -2020, №2. B. 90-94.

3. Tuxliyev I.S., Abduvaliyev A.A Yangi O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar orqali turizmning multiplikativ samarasini oshirish imkoniyatlari “Markaziy osiyo mintaqasida turizmni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami -Qarshi. -2022, b. 13-1

4. Abduvaliyev A.A. “Raqamli iqtisodiyat sharoitida turizm sohasida geoaxborot tizimi tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati” // Servis. – 2022, №1 B. 96-100.

5. Abduvaliyev A.A. “Forecasting the prospects of the development of tourism of Kashkadarya province through the use of a geoinformation system” // Journal of management value & ethics ISSN-2249-9512 July-Sep 22 Vol 12 No.03 B.67-73.